



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
____-umumiy o'rta ta'lim maktabi
chaqiruvga qadar boshlang'ich
tayyorgarlik fani o'qituvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yili 11-sinf uchun
I chorak

DARS
ISHLANMALARI

O‘IBDO‘ _____

2025-2026-o‘quv yili 11-sinf CHQBT fani uchun
I chorak taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Guruhning saf tortishi	1		
2.	Guruh orasidagi masofani kengaytirish va qisqartirish	1		
3.	Guruh tarkibida saf amallarini bajarish	1		
4.	Guruhning yurish safi	1		
5.	Guruh tarkibida harakatlanish va salomlashish	1		
6.	Guruhni tantanali yurishi va saf qo‘shig‘i bilan harakatlanishi	1		
7.	Qurol bilan qad rostlab turish	1		
8.	Saf amallarini qurol bilan joyida turib	1		
9.	BSB-1 [50 ball]	1		
10.	To‘siqlar yo‘lagidan o‘tish mashqini bajarish	1		
11.	To‘siqlar yo‘lagidan o‘tish mashqini bajarish	1		
12.	Qo‘l bilan zarba berish va qaytarish usullari	1		
13.	Oyoq bilan zarba berish va qaytarish usullari	1		
14.	Qo‘l, oyoq bilan zarbalar berish va qaytarish usullari	1		
15.	Raqib changalidan xalos bo‘lish usullari	1		
16.	Raqibni yerga qulatish usullari	1		
17.	CHSB-1 [40 ball]	1		
18.	Og‘ritish usullari	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Guruhning saf tortishi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarga 11-sinf CHQBT fani doirasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tuzilishi, harbiy xizmatning ahamiyati, chaqiruvga qadar tayyorgarlikning mazmuni hamda Vatan mudofaasi bilan bog'liq nazariy bilimlarni tizimli va mukammal tarzda yetkazish, ularning harbiy tayyorgarlik bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarda Vatanga muhabbat va sadoqat, yuksak vatanparvarlik ruhini qaror toptirish, harbiy burch va fuqarolik mas'uliyatini chuqur anglashga o'rgatish, harbiy intizom, jasorat, fidoyilik, jamoada ishlash madaniyati hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga hurmat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad:

O'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish, tezkorlik, jismoniy va ruhiy tayyorgarlik darajasini oshirish, o'z bilimlarini amaliy mashg'ulotlarda qo'llay olish, hayotiy vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

II. FK – fanga oid kompetensiyalar

FK1 – Harbiy qonunchilik va harbiy tartibni bilish kompetensiyasi

FK2 – Askarning jangda harakatlanish va jangovar qurol-aslahalardan foydalana olish kompetensiyasi

FK3 – Jismoniy sifatlarini namoyon qila olish kompetensiyasi

FK4 – Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri va tezkor harakatlanish kompetensiyasi

FK5 – Vatanparvarlik va burchga sodiqlik kompetensiyasi

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish kompetensiyasi

Milliy urf-odatlar, o'zaro muloqot, oilada ota-ona o'rne, farzand tarbiyasi va burch tushunchalariga ega bo'lish kompetensiyasi

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi..

III. Yangi mavzu bayoni:

Yonma-yon tizilgan saf

Guruhning yonma-yon tizilgan safi bir yoki ikki sherengali bo'lishi mumkin. Guruh yonma-yon tizilib saf tortishi uchun **“Guruh, bir sherengaga SAFLAN!”** komandasi beriladi. Komanda bergan guruh komandiri qad rostlab, saf fronti tomon yuzlanib turadi. Guruh shaxsiy tarkibi o'z komandirining chap tomonida saflanadi. Ikki sherengali safning oxirgi qatori to'liq bo'lishi lozim. Shaxsiy tarkib saflana boshlagach, guruh komandiri safdan chiqib, o'z bo'ysunuvchilarining xatti-harakatlarini kuzatib turadi.



Guruh tarkibida **“TEKISLAN!”** yoki **“Chapga TEKISLAN!”** komandasini bajarish

Guruh safini tekislash zarur bo'lsa, **“TEKISLAN!”** yoki **“Chapga TEKISLAN!”** komandasi beriladi. **“Chapga TEKISLAN!”** komandasiga binoan, chap qanotda turgan harbiy xizmatchidan tashqari hamma boshini chapga (chap quloqni o'ng quloqqa nisbatan balandroq, iyakni biroz ko'targan holatda) burib, har bir harbiy xizmatchi o'zini birinchi sanab, to'rtinchi kishining ko'kragini ko'rishi lozim. Tekislanayotgan harbiy xizmatchilar biroz oldinga chiqishi, ortga yoki yon tomonga surilishi mumkin. Tekislanib bo'lgach, **“ROSTLAN!”** komandasi beriladi. Ushbu komandaga binoan, barcha harbiy xizmatchilar to'g'riga qaraydi. Guruh ortga burilib, tekislanayotganida komanda berayotgan komandir tekislanish tomonini ko'rsatib o'tishi lozim: **“O'ngga (chapga) TEKISLAN!”**.



2-rasm. "O'ngga (chapga) TEKISLAN!" komandasi bajarilishi

“TEKISLAN!” komandasi bo'yicha o'ng qanotda turgan harbiy xizmatchidan tashqari hamma boshini o'ngga (o'ng quloqni chap quloqqa nisbatan balandroq, iyakni biroz ko'targan holatda) burib, har bir harbiy xizmatchi o'zini birinchi sanab, to'rtinchi kishining ko'kragini ko'rishi lozim. **“Guruh, TARQAL!”**

komandasi bo'yicha harbiy xizmatchilar har tomon tarqab ketadi. Guruh shaxsiy tarkibini yig'ish uchun **“Guruh, (chapdan, o'ngdan, ortimdan, oldimdan) SAFLAN!”** komandasi beriladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: Yonma-yon saf tortish amallarini mashq qiling.

V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: **“TEKISLAN!”**, **“Chapga TEKISLAN!”** komandalari bajarilishini mashq qiling.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Guruh orasidagi masofani kengaytirish va qisqartirish

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarga 11-sinf CHQBT fani doirasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tuzilishi, harbiy xizmatning ahamiyati, chaqiruvga qadar tayyorgarlikning mazmuni hamda Vatan mudofaasi bilan bog'liq nazariy bilimlarni tizimli va mukammal tarzda yetkazish, ularning harbiy tayyorgarlik bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarda Vatanga muhabbat va sadoqat, yuksak vatanparvarlik ruhini qaror toptirish, harbiy burch va fuqarolik mas'uliyatini chuqur anglashga o'rgatish, harbiy intizom, jasorat, fidoyilik, jamoada ishlash madaniyati hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga hurmat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad:

O'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish, tezkorlik, jismoniy va ruhiy tayyorgarlik darajasini oshirish, o'z bilimlarini amaliy mashg'ulotlarda qo'llay olish, hayotiy vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

II. FK – fanga oid kompetensiyalar

FK1 – Harbiy qonunchilik va harbiy tartibni bilish kompetensiyasi

FK2 – Askarning jangda harakatlanish va jangovar qurol-aslahalardan foydalana olish kompetensiyasi

FK3 – Jismoniy sifatlarini namoyon qila olish kompetensiyasi

FK4 – Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri va tezkor harakatlanish kompetensiyasi

FK5 – Vatanparvarlik va burchga sodiqlik kompetensiyasi

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish kompetensiyasi

Milliy urf-odatlar, o'zaro muloqot, oilada ota-ona o'rni, farzand tarbiyasi va burch tushunchalariga ega bo'lish kompetensiyasi

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi..

III. Yangi mavzu bayoni:

Guruh harbiy xizmatchilarining orasidagi masofani kengaytirish va qisqartirish

Guruh harbiy xizmatchilarining orasidagi masofani kengaytirish uchun **“Guruh, o‘ngga (chapga, o‘rtadan) falon qadamga YOYIL (yugurib YOYIL)!”** komandasi beriladi. Ijro komandasi bo‘yicha guruh shaxsiy tarkibi oraliq masofa kengaytirilishi uchun saf o‘rtasidagi harbiy xizmatchi sifatida tayinlangan harbiy xizmatchidan tashqari, tayinlangan tomon burilib, oyoqlarni yonma-yon taqash barobarida,



1-rasm. Guruh orasigagi masofani kengaytirish

boshni front tomon burgancha, izma-iz kelayotgan harbiy xizmatchiga yelka uzra qarab, undan uzoqlashmay, tezlashgan yarim qadam bosib (yugurib) boradi. Har bir harbiy xizmatchi, uning ortidan kelayotgan harbiy xizmatchi to‘xtagach, tayinlangan komanda bo‘yicha qadam tashlab, o‘ngga (chapga) buriladi. Guruh harbiy xizmatchilarining orasidagi masofa saf o‘rtasidan boshlab kengaytirilayotganida, saf o‘rtasida turgan harbiy xizmatchi tayinlanadi. Saf o‘rtasidagi harbiy xizmatchi o‘z familiyasini eshitib, **“MEN”** deya javob bergancha o‘ng qo‘lini oldinga uzatib, tushiradi. Guruh safi tekislanar ekan, oraliq masofa kengaytirilganda tayinlangan interval saqlanadi. Guruh harbiy xizmatchilarining orasidagi masofani qisqartirish uchun **“Guruh, o‘ngga (chapga, o‘rtaga) falon qadamga JIPSLAN (yugurib JIPSLAN)!”** komandasi beriladi. Ijro komandasiga binoan, guruh shaxsiy tarkibi, oraliq masofa qisqartirilishi uchun saf o‘rtasidagi harbiy xizmatchi sifatida tayinlangan harbiy xizmatchidan tashqari, jipslashish tomon burilib, tezlashgan yarim qadam bosgancha (yugurgancha) komandada belgilangan intervalga yaqinlashadi. Ushbu intervalga yetib kelgach, mustaqil ravishda to‘xtab, o‘ngga (chapga) buriladi.

Bir joyda turgan guruhning safda bir necha qadamga (“Chap-GA!”, “O‘ng-GA!”) surilishi

Safda, bir joyda turgan guruh bir necha qadamga surilishi uchun **“Guruh, o‘ng-GA (chap-GA)!”** komandasi beriladi. Guruh burilgach, **“Oldinga 2 qadam BOS!”** komandasi beriladi. Harbiy xizmatchilar tegishli masofaga surilgach, **“Chap-GA!”** (**“O‘ng-GA!”**) komandasi bo‘yicha oldingi holat qabul qilinadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: Guruh orasidagi masofani kengaytirish va qisqartirish mashqlarini bajaring.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: Safda, bir joyda turib, bir necha qadamga (chapga va o‘nga) surilish mashqlarini bajaring.



O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

44 listdan iborat CHQBT fanidan 11-sinf I chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

[@Maktablar_uchun_hujjatlar](https://t.me/@Maktablar_uchun_hujjatlar)

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**